

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

UDK: 336.713:336.717(575.1)

XOJIYEV JAXONGIR DUSHABAYEVICH

**TIJORAT BANKLARINING AKTIVLAR PORTFELI
SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

Ixtisoslik: 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fasafa doktori (PhD)

ilmiy darajasini olish uchun

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. R. Karlibayeva

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. TIJORAT BANKLARI AKTIVLAR PORTFELINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1-§. Tijorat banklari aktivlar portfellarining samaradorligini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy yondoshuvlar.....	11
1.2-§. Aktivlar portfeli samaradorligining baholash ko'rsatkichlari va mezonlari.....	20
1.3-§. Xorijiy mamlakatlar tajribasida aktivlar portfeli samaradorligini boshqarish usullari.....	29
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	38
2-BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR PORTFELI SAMARADORLIGINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	41
2.1-§. O'zbekiston tijorat banklarida aktivlar tarkibi va dinamikasi tahlili.....	41
2.2-§. Tijorat banklari aktivlar portfelinin daromadlilik va likvidlilik darajasi tahlili.....	53
2.3-§ Tijorat banklarini barqarorligini ta'minlovchi aktivlariga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	66
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	78
3-BOB. TIJORAT BANKLARI AKTIVLAR PORTFELLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	82
3.1-§. Tijorat banklari aktivlarining samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	82
3.2-§. Tijorat banklari aktivlar portfellarining samaradorligini oshirish masalalari.....	97
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	114
XULOSA.....	117
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	124

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida tijorat banklarining aktivlar portfeli samaradorligini takomillashtirishning moliyaviy tizim barqarorligi, likvidlikni ta'minlash, kreditlar va investisiya faolligini optimallashtirish, banklar foydaliligini oshirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shish nuqtai nazaridan strategik ahamiyati ortib bormoqda. Mazkur jarayonda aktivlar tuzilmasini diversifikatsiyalash, risklarni boshqarishning zamonaviy vositalaridan (VaR, stress-testlar, reyting modellari) foydalanish, aktivlar sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish hamda raqamli texnologiyalar asosida aktivlar aylanmasini tezlashtirish orqali bank tizimining investision salohiyati va mijozlarga xizmat ko'rsatish samaradorligi sezilarli darajada oshiriladi. 2024-yilda «Bank of America (AQSh) banki aktivlarining umumiy hajmida kreditlar eng yuqori salmoqni (40,2%) egallagani holda, bank yalpi daromadining 61,2 foizini kreditlardan olingan foizli daromadlar tashkil etdi»¹. Yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar tijorat banklarining joriy likvidliligini ta'minlash imkonini beradi. 2024-yilda «Barclays bank tomonidan Hukumatning qimmatli qog'ozlariga va to'lovi Hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar uning jami aktivlarini 8,2 foizini tashkil etdi»². Bu esa aktivlar portfellarining sifatini nisbatan yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Dunyo mamlakatlarida tijorat banklarining kredit va qimmatli qog'ozlar portfellarining samaradorligini oshirish, xususan, kreditlarning daromadliligi va risk darajasi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga va korporativ qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash masalalari ilmiy asosda tadqiq qilinmoqda. Ammo, mazkur tadqiqotlarda moliyaviy risklar darajasi yuqori bo'lgan, banklarning aktivlar portfellarini diversifikatsiya darajasi past bo'lgan sharoitda aktivlar portfelinin sifatini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari ochib

¹ Consolidated balance sheet. Consolidated statement of income. Bank of America. Annual Report 2018. www.bankofamerica.com. Annual Report 2018. www.bankofamerica.com.

² Consolidated balance sheet. Barclays PLC. Annual Report 2018. www.barclays.com.

berilmaganligi tijorat banklari aktivlar portfelli sifatini oshirish masalasi ilmiy asosda tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekistonda ham tijorat banklarining kreditlari iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. «Kichik va o'rta biznes (KOB)ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, ish o'rinlari va eksportdagi hissalari bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi ta'minlashning zaruriy sharti sifatida e'tirof etilgan»³. Biroq, respublikamizda tijorat banklarining aktivlari portfellarining sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, banklar uzoq muddatli kreditlarining resurs ta'minoti masalasi hal qilinmagan. «Banklarga qo'yilgan depozitlarning 70 foizi qisqa muddatli bo'lgani holda, kreditlarning 90 foizi uzoq muddatga berilgan»⁴. O'zbekistonda moliya bozorlarini va tijorat banklarining investitsiyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli organlarning moliya bozorining zamonaviy vositalarini joriy etishdagi rolini kuchaytirish, bank tizimini isloh qilish strategiyasida davlat ulushiga ega tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish orqali banklar o'rtasidagi tabiiy raqobatni chuqurlashtirish va ularning faoliyatini bozor tamoyillari asosida tashkil etish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish orqali mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'laqonli namoyon etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu maqsadlarning bajarilishini ta'minlashda tijorat banklarining aktivlar portfeli samaradorligini takomillashtirish tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"⁵, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030"⁶ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 martdagi PF-50-sonli farmoni.

⁴ Mirziyoyev Sh.M.: Banklar endi «o'z aravasini o'zi tortishi kerak». <https://sputniknews-uz.com/economy/20191026/2694075>.

⁵ <https://lex.uz>, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.

⁶ PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.